



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i05.022>

ORCID:0009-0002-0801-2690

TURKISTONDA “HARBIY KOMMUNIZM” DAVRIDA MEHNAT MAJBURIYATLARINING JORIY ETILISHI.

Qo‘qon Davlat Universiteti

“Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

Toshmatov Shuhratjon Abdulqosimovich

Tarix yo‘nalishi talabasi Mullayev Farrux

Annottatsiya. Ushbu maqolada Turkistonda “Harbiy kommunizm” davrida inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishi, majburiy mehnatga safarbar qilishda sovet hokimiyati tomonidan milliy turmush sharoitlarini hisobga olinmaganligi, joylarda mehnat majburiyati ko‘pincha betartib, uyushmagan holda amalga oshirilganligi, jamoat ishlariga safarbar etilganlar bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilinmaganligi, ularga hokimiyat tomonidan tahdid va zo‘ravonlik choralari keng qo‘llanilganligi haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: *“Harbiy kommunizm”, “Mehnat to‘g‘risidagi Kodeks”, TASSR, Xalq Komissarlari Soveti, Turkiston Respublikasi Muvaqqat Harbiy Inqilobiy Soveti, Markaziy Ijroiya Qo‘mita, Turkkomissiya.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются грубые нарушения прав человека в Туркестане в период «военного коммунизма». Освещается игнорирование советской властью национально-бытовых условий местного населения при его мобилизации на принудительный труд. Отмечается, что трудовая повинность на местах зачастую осуществлялась хаотично и неорганизованно, отсутствовала какая-либо забота о лицах, мобилизованных на общественные работы, а со стороны властей в отношении них широко применялись меры угроз и насилия.

Ключевые слова: *«Военный коммунизм», «Кодекс законов о труде», ТАССР, Совет Народных Комиссаров, Временный военно-революционный совет Туркестанской республики, Центральный Исполнительный Комитет, Турккомиссия.*

Annotation. This article examines the gross violations of human rights in Turkestan during the period of “War Communism”. It highlights how the Soviet authorities ignored the national traditions and living conditions of the local population when mobilizing them for forced

labor. Furthermore, the study notes that labor duty at the local level was often carried out in a chaotic and disorganized manner, characterized by a complete lack of welfare or care for those conscripted into public works, alongside the widespread use of threats and coercive measures against them by the authorities.

Keywords: “War Communism”, “Labor Code”, TASSR, Council of People’s Commissars, Provisional Military Revolutionary Council of the Turkestan Republic, Central Executive Committee, Turkcommission.

KIRISH. Soliq siyosati siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan bevosita va takrorlanuvchi aloqalarning murakkab tizimida o‘rin olgan. Ularni birgalikda o‘rganish muhim va dolzarb vazifadir. Xususan, 1917–1921-yillarda sovet qishlog‘idagi soliq siyosatini rivojlantirishni asosiy bosqichlari va tamoyillari, uning ishlab chiqarish rivojlanishiga ta’siri va dehqonlarda ijtimoiy o‘zgarishlarning tabiati masalalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida markazning ko‘rsatmasidan kelib chiqqan holda, Turkistondagi bolshevik hukumati va mahalliy Sovetlar davlat xalqqa nisbatan zo‘ravonlik choralari keng tatbiq etishni boshladilar. Shaharlardagi burjuaziya vakillari va umuman, badavlat kishilarga og‘ir majburiyatlar yuklandi. Majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmagan kishilar qattiq javobgarlikka tortildilar. Bu esa aholining keskin noroziligiga sabab bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha M.Y.Zalesskiyning “Sovet davlatining qishloqdagi soliq siyosati” asari, V.P.Dyachenkoning “Sotsialistik davlat rivojlanishining birinchi bosqichida sovet moliyasi, 1917–1925-yillar” nomli asari nashr etildi. Ushbu mualliflar o‘sha davrda hukmron bo‘lgan kuchli mafkuraviy bosim va partiyaviy-siyosiy taqiqlar tufayli o‘z tadqiqotlarida soliq tizimining ziddiyatli jihatlarini yetarlicha xolisona o‘rgana olmaganlar.

Tadqiqotning metodologik asosini tarix fanining muhim tamoyillari bo‘lmish ijtimoiy va tizimli yondashuv, faktik materiallarni taqdim etishning ob‘ektivlik tamoyillari tashkil etadi. Maqsadga erishish uchun fanlararo (analiz, sintez) va maxsus tarixiy (xronologik, tipologik) metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR. “Harbiy kommunizm”ning ilk davridanoq majburiy ravishda mehnat qilish mafkurasi markaziy hukumat tomonidan 1918-yil dekabrda amalga joriy etilgan “Mehnat to‘g‘risidagi Kodeks”da o‘z ifodasini topdi. Mazkur kodeksga muvofiq 16 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan mehnat qilishga layoqatli barcha fuqarolar mehnat majburiyatini bajarishlari shart edi. “Burjuaziya” shuningdek, kommunistik mezonlarga ko‘ra “ijtimoiy foydali mehnat” bilan band bo‘lmagan shaxslar ma’muriy tartibda ishga jalb qilinar edi [7.167-168-betlar].

“Harbiy kommunizm” siyosatining muhim tarkibiy qismi sovet hukumati tomonidan joriy etilgan umumiy mehnat majburiyati bo‘lib, bu inson huquqlarini qo‘pol ravishda buzish edi. Bu yo‘nalishdagi dastlabki qadamlar Turkistonda oziq-ovqat kamali davrida qo‘yildi. 1918–1922-yillarda sovet davlatida urush sharoitida aholiga o‘tin majburiyati, mehnat majburiyati (barcha

turdagi yoqilg‘i tayyorlash, yuklash va tashish), oziq-ovqat va harbiy yuklarni tashish majburiyati kabilar tatbiq etildi. Bu majburiyat evaziga aholiga hech qanday haq to‘lanmas edi. Turkiston ASSRda ham aholini haq to‘lanmaydigan majburiy ishlarga jalb etish keng tatbiq etildi. 1918-yil 9-sentabrda TASSR Xalq Komissarlari Soveti “Umumiy mehnat safarbarligini joriy etish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Ommaviy mehnat majburiyatini qat’iy joriy etish Turkiston Sovetlarning VI o‘lka syezdi tomonidan ham ilgari surilgan va bu haqida tegishli qaror chiqarish TASSR hukumatidan ham talab qilingan [2.88-89-varaqlar].

Mehnat majburiyatini bevosita amalga oshirish mahalliy Sovetlarga yuklatildi. Toshkent shahar Soveti birinchilardan bo‘lib bu chorani amalga oshira boshladi. Uning topshirig‘iga ko‘ra, “mehnatkash bo‘lmagan unsurlar” mehnat majburiyatlarini bajarish ishlariga, ayniqsa, yoqilg‘i-o‘tin tayyorlash ishlariga majburan jalb qilingan. 1918-yil kuzida Skobelev va Samarqand burjuaziyasi vakillari ham jamoat ishlariga jalb etila boshlandi [5.311-varaq].

Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti qaroriga muvofiq 1918-yil sentabr oyining birinchi yarmidanoq S.N. Shumilov boshchiligida yoqilg‘i bo‘yicha majburiyat ta‘sis etilgan bo‘lib, unga binoan aholining turli qatlamlarini yoqilg‘i tayyorlashga safarbar qilish ko‘zda tutilgan. Bunda neft va ko‘mir qazib chiqarishdan tortib saksovul va boshqa o‘tinlar tayyorlashgacha bo‘lgan ishlar bajarilgan. Natijada yilning oxiriga borib 70 mln pud saksovul tayyorlashga muvaffaq bo‘lingan [7.167-bet].

1919-yilda majburiy mehnat safarbarligi yanada kengroq tus oldi. Bunga Turkiston Respublikasi Muvaqqat Harbiy Inqilobiy Soveti, Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Soveti hamda Toshkent Soveti Ijroiya qo‘mitasining 1919-yil 29-yanvardagi burjuaziya vakillarini jamoat ishlariga jalb qilish maqsadida butun respublika bo‘ylab ularni ro‘yxatga olish, ro‘yxatga olinganlarni respublika hokimiyati va mahalliy Sovetlar ixtiyoriga o‘tkazish, shuningdek, barcha “mehnat qilmayotgan burjuaziya vakillarini oziq-ovqat kartochkalaridan mahrum qilish to‘g‘risida qarori turtki bo‘ldi [1.42-varaq]. O‘lka Sovetlarining VII syezdi tomonidan o‘lkada umumiy mehnat safarbarligini amalga oshirish bo‘yicha keng qamrovli dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, bunga binoan “Umumiy mehnat safarbarligini joriy etish to‘g‘risida” qaror qabul qilinib, respublikaning 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan barcha voyaga yetgan ayol va erkak aholisini ro‘yxatga olish, ularni Mehnat va aholini muhofaza qilish komissarligi hamda tegishli idoralar ixtiyoriga o‘tkazish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Ular Mahalliy Sovetlar tomonidan sanoatning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zarur deb topgan tarmoqlariga ishga safarbar qilinar edilar [3. 8-varaq].

Ushbu hujjat mahalliy xususiyatlarni, milliy turmush sharoitlarini hisobga olmagan edi, bu birinchi navbatda umumiy mehnat majburiyati barcha mehnatga layoqatli aholi, shu jumladan mahalliy millat ayollari uchun ham majburiy ekanligida ifodalangan edi.

Umuman, 1919-yilda Turkiston ASSRda 180 ming kishi ommaviy mehnat majburiyati bo‘yicha jamoat ishlariga jalb qilingan [6.167-bet]. O‘sha davr hujjatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, joylarda mehnat majburiyati ko‘pincha betartib, uyushmagan holda amalga

oshirilgan, jamoat ishlariga safarbar etilganlar bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilinmagan, ularga hokimiyat tomonidan tahdid va zo‘ravonlik choralari keng qo‘llanilgan.

Ommaviy mehnat safarbarligi bilan bir qatorda bu davrda butun mamlakatda bo‘lganidek, TASSRda transport vositalarining yetishmasligi sababli qishloq aholisiga ulov majburiyati joriy qilingan. Unga ko‘ra transport vositalariga ega bo‘lgan qishloq aholisi harbiy askarlarni, harbiy yuklarni, g‘alla, yoqilg‘i kabi yuklarni tashish ishlariga jalb qilingan. Ulov majburiyatidan faqat paxtakor xo‘jaliklarga istisno tariqasida ozod qilingan, Turkkomissiya va TASSR Xalq Komissarlari Sovetining 1920-yil 29-noyabrdagi qaroriga asosan paxta yetishtiruvchi dehqon xo‘jaliklari ot-ulov majburiyatidan, shuningdek, mehnat majburiyatidan ozod qilindi [4. 200-varaq].

Bu kabi majburiyatlar aholining keskin noroziliklarini keltirib chiqargani uchun oxir-oqibatda ularning soni qisqartiriladi. Lekin yuklarni tashish uchun asosan qishloq aholisi uchun joriy etilgan ot-ulov majburiyati saqlanib qoldi va bu majburiyat sovet davlatida 1920-yillarning oxirigacha amal qilib keldi.

MUHOKAMA. Dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun birinchi navbatda, dehqonlar uchun juda og‘ir va noqulay bo‘lgan oziq-ovqat razvyorskasidan voz kechish kerak edi. Biroq, bolsheviklar davlati dehqon xo‘jaliklaridan oziq-ovqat mahsulotlarini erkin narxlar bo‘yicha sotib olishga qodir emas edi. Ayni vaqtda, davlat dehqonlarga qishloq xo‘jalik mahsulotlari evaziga sanoat mollari (asbob-uskunalar) bilan ta‘minlashga ham tayyor emasdi. Bunday sharoitda davlat dehqon xo‘jaliklari zimmasiga minimal miqdorda oziq-ovqat solig‘ini joriy etishni yagona to‘g‘ri yo‘l sifatida tanladi. Bu tartibda dehqonlar yetishtirgan mahsulotining faqat bir qismini natural shaklda davlatga soliq sifatida topshirishi, qolgan qismiga esa to‘la egalik qilishi mumkin edi. Dehqonlar ixtiyorida qoladigan mahsulot ularning xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin edi. Ya‘ni dehqonlar soliqdan ortgan mahsulotlarini bozorda erkin narxlarda sotishdan topgan mablag‘iga sanoat mollari xarid qilishi mumkin edi. Umuman, oziq-ovqat razvyorstkasi o‘rniga joriy etiladigan oziq-ovqat solig‘i dehqonlar ahvolini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilishi, ular tomonidan ekilayotgan ekin maydonlarini kengaytirish va qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga imkon berishi lozim edi.

XULOSA. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ma‘lum bo‘ladiki, XX asr birinchi choragida Turkistonda chuqur ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechgan bo‘lib, buni tasdig‘ini biz mazkur davrdagi sovet hukumatini soliq va mehnat majburiyati siyosati tarixi orqali guvohi bo‘lamiz.

Ushbu davrda soliq tizimi tarkibida aholiga mehnat majburiyatlari ham yuklangan bo‘lib, yuqorida shu masalaga doir ma‘lumotlar tahlil etilgan. Dastlabki tasavvurda bu majburiyatlar aholiga qonun asosida joriy etilgan, xech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydigandek ko‘rinadi. Aslida mehnat majburiyatlari sovetlar tomonidan inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishi, aholini majburiy mehnatga safarbar qilishda milliy turmush sharoitlarini hisobga olinmaganligi, joylarda mehnat majburiyati ko‘pincha betartib, uyushmagan holda amalga oshirilganligi, jamoat

_____ **Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 5-son** _____ **A seriya**
ishlariga safarbar etilganlar bo‘yicha g‘amxo‘rlik qilinmaganligi, ularga hokimiyat tomonidan
tahdid va zo‘ravonlik choralari keng qo‘llanilganligi ayon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘z MA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 30-ish.
2. O‘z MA, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 375-ish.
3. O‘z MA, R-35-fond, 1- ro‘yxat, 152-ish.
4. O‘z MA, R-39-fond, 1-ro‘yxat, 344-ish.
5. Farg‘ona VDA, 121-fond, 1- ro‘yxat, 29-ish.
6. Акрамов А. Борьба Коммунистической партии Туркестана за осуществление политики «военного коммунизма». 1918–1921 гг. – Ташкент, 1965.
7. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865–1990 йиллар). – Тошкент: Шарқ, 2000.